

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Surunkali rinosinusitlarni proliferativ turlarini etiopatogenetik mexanizmlarida molekular-genetik omillarning roli va klinik kechishini bashoratlash hamda davolash algoritmini ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - molekulyar, genetik, immunogistokimyoviy va klinik tadqiqotlarni o'rganish asosida surunkali rinosinusitlarni proliferativ turlarining kechishini erta tashhislashning yangi usullari ishlab chiqiladi; - genlar va xavf omillari assotsiatsiyasini o'rganish asosida surunkali rinosinusitlarni proliferativ turlarini rivojlanish mexanizmlarining yangi mezonlari aniqlanadi; - aholi o'rtasida surunkali rinosinusitlarni proliferativ turlarini tekshirish uchun bemorlar tayyor molekulyar-genetik markerlar panellari yordamida guruxlarga bo'lib olinib tekshiruvlar olib boriladi; - surunkali rinosinusitlarni proliferativ turlarining turli formalarida IL-4, IL-13, IL-5, IL-1β, COX genlarini hisobga olgan holda bemorlarning mavjud tashxislash va davolash algoritmini ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog'liqni saqlash vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.